

ISSN 2181-9505  
Doi Journal 10.26739/2181-9505

# Philosophy and Life

FALSAFA VA HAYOT • ФИЛОСОФИЯ И ЖИЗНЬ

2024 № 1 (24)



ISSN 2181-9505  
Doi Journal 10.26739/2181-9505

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy Universiteti  
O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi  
Imom Buxoriy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi  
O'zbekiston falsafa jamiyati

Национальный Университет Узбекистана имени Мирзо Улугбека  
Международный научно-исследовательский центр Имам Бухари  
при Кабинете Министров Республики Узбекистан  
Философское общество Узбекистана

The National University of Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek  
Imam Bukhari International Research Center under the Cabinet of Ministers  
of the Republic of Uzbekistan  
Philosophical Society of Uzbekistan

**FALSAFA VA HAYOT  
XALQARO JURNAL**

**ФИЛОСОФИЯ И ЖИЗНЬ  
МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ**

**PHILOSOPHY AND LIFE  
INTERNATIONAL JOURNAL**

**2024 № 1 (24)**

Jurnal bir yilda 4 marta nashr qilinadi.  
Журнал выходит 4 раза в год.  
The journal is published 4 times in a year.



**Toshkent**

## SIYOSAT VA JAMIYAT FALSAFASI

**Muxamedjanova Lalixon Ashuralievn**

Zamonaviy jamiyatda ma'naviy begonalashuv va uni bartaraf etish yo'llari.....9-16

**Nadirova Zoyira Payanovna**

Intuitsiya kognitiv tafakkurda qaror qabul qilishimizga ko'maklashuvchi omil sifatida.....17-20

## TA'LIM VA FAN FALSAFASI

**Tulenova Gulmira Jandarovna**

Ta'lim tizimining samaradorligi va sifatini oshirishning asosiy omillari.....21-29

**Abdullayev Temur Bobir o'g'li**

Tafakkur uslubi transformatsiyasida ongning falsafiy xususiyatlari .....30-35

**Usmanov Muhridin Abdimuratovich**

Idrokning davr va obrazlarni tasavvur qilishdagi roli .....36-43

## TARIX FALSAFASI VA FALSAFA TARIXI

**Arziqulov Elboy Azim o'g'li**

O'zbek xalq eposlaridagi ma'naviy qadriyatlarni barkamol avlod ma'naviy-ma'rifiy kamolotiga ta'sirini oshirishning zamonaviy usullari va vositalari.....44-50

**Xidirov Mustaf**

Ilmiy maktablarning shakllanishi va ularning ilmiy faoliyatni tashkil etishdagi amaliy ahamiyati .....51-58

**Qodirov Javlonbek Abdusattor o'g'li**

Daniel Dennetning ong nazariyasi: keng qamrovli tahlil .....59-67

## DUNYO MADANIYATI VA DINIY AN'ANALAR

**Nishanova Ozoda Djalolitdinovna**

Go'zallik kategoriyasi va uning o'zbek etnomadaniyatidagi o'rni .....68-76

**Ruziyeva Ruxsora Xodiyevna**

Vaqtning qiymati – inson umrining eng oliy qadriyati.....77-83

**Ruziyeva Ruxsora Xodiyevna**

ISFT instituti professori, falsafa fanlari doktori

E-mail: rruksora@gmail.com

(Toshkent, O'zbekiston)

**VAQTNING QIYMATI –  
INSON UMRINING ENG OLIY QADRIYATI**

**Annotatsiya.** Inson dunyoga kelibdiki, unga tortib olib bo'lmaydigan bir narsa, ya'ni vaqt degan oliy borliq beriladi. Hazrat Bahouddin Naqshband fikrlari bilan aytganda, kim vaqtini zoye ketkazsa, vaqt uning dushmaniga aylanadi. Shunday ekan, nafasning zoye bo'lishiga yo'l qo'ymaslik va undan ehtiyot bo'lish kerak. Mutafakkirlardan biri aytganidek: vaqt hayotdir. Inson hayoti esa uning tug'ilgan onidan vafot kunigacha yashab o'tadigan vaqtidir.

**Kalit so'zlar:** vaqt, inson umri, hayot mazmuni, hayot, qadriyat.

**ЦЕННОСТЬ ВРЕМЕНИ –  
ВЫСШАЯ ЦЕННОСТЬ ЧЕЛОВЕЧЕСКОЙ ЖИЗНИ**

**Аннотация.** Человек приходит в мир, и ему дается то, чего нельзя отнять, то есть высшее существо, время. По словам Хазрата Бахауддина Накшбанда, тот, кто теряет время, становится его врагом. Поэтому следует не допускать растрачивания дыхания и быть осторожным с ним. Как сказал один мыслитель: время – это жизнь. Жизнь человека – это время, которое он проживает с момента своего рождения до дня своей смерти.

**Ключевые слова:** время, жизнь человека, смысл жизни, жизнь, ценность.

**THE VALUE OF TIME IS THE HIGHEST VALUE  
OF HUMAN LIFE**

**Annotation.** Man comes into the world and is given something that cannot be taken away, that is, the supreme being, time. In the words of Hazrat Bahauddin Naqshband, whoever wastes time, time becomes his enemy. Therefore, one should not allow the breath to be wasted and be careful about it. As one thinker said: time is life. A person's life is the time he lives from the moment of his birth to the day of his death.

**Key words:** time, human life, meaning of life, life, value.

## KIRISH

Inson qachon dunyoga keladi? Inson eng avvalo, ona qornida dunyoga keladi. Qur'oni karimda homila ikki oylik bo'lganda farishtalar yuborilib, uning taqdiri yozilishi qayd etilgan. Zamonaviy tibbiyotda ham homila ikki oylik bo'lgandan keyin uni oldirish bola va ona hayotiga tajovuz hisoblanib, bu mumkin emas. Chunki homila ikki oyda inson suratiga kirib, uning yuragi ilk bor ura boshlaydi. Mutaxassislarning fikricha, homila ko'rmaydi, lekin eshitadi, his qiladi. Tasavvur qiling: chaqaloq tug'ildi. Yashashga imkon berildi... U oila muhitida dunyoni bilishni boshlaydi. Atrofdagilar yordamida tili chiqadi. U ko'zlarini katta-katta ochib, dunyoga qiziqish bilan qaray boshlaydi. Xuddi koinotning boshqa joyidan kelib qolganday. Har bir narsani ushlab ko'rishga, o'z tajribasidan o'tkazishga harakat qiladi. Agar kuzatib turilsa, u o'ziga nima kerakligini kattalardan-da, yaxshiroq bilishini ko'rish mumkin. Sog'lom o'sayotgan bola juda talabchan, o'ynashni, ko'chada aylanishni, o'ziga yoqadigan ovqatlarni tanovul qilishni yoqtirishini o'z xatti-harakatlari bilan Sizga yetkazishga urinadi. Bir so'z bilan aytganda, u har daqiqadan unumli foydalanadi. Uch yoshda bog'chaga boradigan bo'lsa, endi u o'zini ancha eplaydi. Qoshiqni ushlab bemalol ovqatlanadi, nima kerakligini so'zlar bilan tushuntiradi. She'rlar yodlaydi. Xotirasi rivojlanadi.

## MUHOKAMA VA NATIJALAR

Muchalning yarmiga teng 6 yoshga to'lganda sog'lom bola bemalol maktabga borishi mumkin. Yoki yetti yoshida. Shu yerga kelib, har bir bola jamiyat hayotining kichik ko'rinishi bo'lgan o'zi tengi insonchalar bilan uchrashadi. To'g'ri, bola avval ham o'zlariga o'xshaganlar bilan bog'chada, ko'chada, qarindoshlar orasida uchrashgan. Muomalada, munosabatda bo'lgan. E'tibor beriladigan bo'lsa, jamiyatning bir bo'lagi sifatida odamlarga qo'shilish murakkablashib boradi. Har xil joyda (makonda) o'sgan, vaqtini har xil o'tkazgan farzandlar endi bitta makonda (ya'ni maktabda) bir vaqtda, masalan, ertalab soat 8:00 da uchrashib, birgalikda darsni boshlashadi va birga tugatishadi. Boshlang'ich ta'lim, ya'ni to'rt yil bu holat davom etadi. Mana shu davr bolaga nafaqat ta'lim beradi, balki bolaning murg'ak qalbiga yaxshi-yomon, ezgu-yovuz, oq-qora kabi ko'pdan-ko'p antinomialarni singdirib boradi. Ba'zi bolalar falonchi sinfdoshim yo'lda kelayotganda chumolini oyog'i bilan bosib, o'ldirib qo'ydi, deb onasiga norozi bo'lib shikoyat qiladi. Shunda ona "qo'yaver, nima qilsa qilsin", demasdan (chunki u har bir jonzotga rahm ko'zi bilan qaraydigan shu o'g'ilning onasi) "jo'rangga ayt, unaqa qilmasin, uvol bo'ladi", deydi. Bola bu omonat gapni egasiga yetkazish uchun yugurib ketadi. Jo'راسi esa bolaning gapini eshitib, uning ustidan "uvoling nimasi", deb kuladi. Bola uvolning nima ekanligini o'zining kichkina yurakchasi bilan anglasa ham jo'rasiga so'z bilan tushuntira olmay, iztirobga tushadi. Ammo bu yoshdagi bolalarning ko'pchiligi yomonliklarni tez unutadigan, butun kuchlari bilan ezgulikka intiladigan bo'lishadi. Lekin ularning o'rtasiga tushgan ota-onalar bir umrga yuz ko'rishmas bo'lib ketishi mumkin.

Shuning uchun ham “bolaning o‘rtasiga aqlli odam tushmaydi”, degan naql bekordan-bekorga aytilmagan.

Bolalar boshlang‘ich sinfda 2-3 ta o‘qituvchi bilan ishlab, ularga mehr qo‘ygan bo‘lsalar, endi yuqori sinfga o‘tib, ko‘plab o‘qituvchilar va metodikalarga duch keladilar. Shu bilan birga, farzand yoshi ulg‘aygan sari nafaqat tashqi qarama-qarshilik, balki ichki kechinmalarga ham duch keladiki, bu ayniqsa, o‘smir yoshida o‘zini namoyon qiladi. Xuddi mana shu vaqtda ularga juda e‘tiborli bo‘lish kerak. Psixologlarning fikricha, bu davrda o‘spirinlarning 99 foizi yolg‘on gapirishga moyil bo‘lishar ekan. Xuddi mana shu holatlarda ularni yolg‘on gapirishga majbur qilmaslik, ya‘ni bo‘lar-bo‘lmasga tanbeh bermaslik, ularning xatolarini o‘sha vaqt ko‘rmaslikka olish, shu holatga yaqin badiiy adabiyot olib berish, asar mazmuni to‘g‘risida birgalikda mulohaza yuritish va insonni har qanday holatda ham tushunish mumkinligi, umuman rost gapirish ham katta savob ekanligini faqatgina uqtirish emas, balki o‘rnak bo‘lib, anglatish lozim. Masalan, “falonchining bolasi onasini aldab, o‘zboshimchalik qilib qo‘yibdi. Onasi hozir kasal yotibdi, o‘g‘lining qilg‘ini ko‘tara olmay”, desa bolaning yuragida pushaymonlik paydo bo‘ladi. Bunaqa fikrlar yumshoqlik bilan takrorlanib turilsa, bolada ichki tartib – o‘z-o‘zini tarbiyalash shakllana boradi.

Farzand yuqori sinfga yoki kollej-litseyga o‘smir yoshida, institutga yoki biror ishga undan keyin keladi. Yana avvalgi holat takrorlanadi. Har xil makonda vaqtdan har xil foydalangan yoshlar bir xil vaqtda bitta makonda uchrashib, ta‘lim-tarbiya olib, xayrlashadilar. Keyingi jarayonlar bog‘cha, maktablardagiga qaraganda, bir muncha taraqqiy etgan bo‘lib, murakkabroq kechadi. Bog‘cha maktablarda bolalar ko‘proq nazorat ostida bo‘lishsa, litsey-kollejlarda bir muncha erkinroq, dadilroq bo‘lishadi. Institutga kirgan talabalar esa, ota-ona nazoratidan tashqarida, guruh rahbari kuzatuvida bo‘lishadi.

Yuqoridagilarda go‘yoki bola tarbiyasida oilaning o‘rni va ahamiyati beqiyosligigi e‘tibor kamdek. Ammo oila bolalar va yoshlar tarbiyasi uchun asosiy maskan ekanligini unutmasligimiz kerak. Ayniqsa, oilada bolalarga milliy qadriyatlarni singdirib borish muhim o‘rin tutadi. Bolaning onaga mehri tug‘ma bo‘ladi, u onasiga intiladi. Keyinchalik atrof va atrofdagilarga bo‘lgan munosabati, mehri, nafrati shakllana boradi. Kimdir unga ozor yetkazsa, u o‘sha odamdan doimo begonasirab yuradi.

Eng avvalo, oila muhitida farzandda urf-odat va qadriyatlar asosida Vatan tuyg‘usi asta-sekin shakllana boradi. Bunda esa ota-ona farzand oldida yanada mas‘uliyatli bo‘lishi talab etiladi. Uning komil inson bo‘lib voyaga yetishida ota-ona butun diqqat e‘tiborini qaratishi lozim bo‘ladi. Ayniqsa, oila va bolalar bog‘chasi hamkorlikda bolani maktab yoshigacha tarbiyalab borish muhim ahamiyatga ega. Ma‘lumki, bolalarga maktab ta‘limining qulayligi, eng avvalo, o‘z ona tillarida hayotning davom etishidir. Asosiy fanlar tushunarli, sodda tilda o‘tilib, bolalarga aks ta‘sir ko‘rsatmasligi uchun pedagoglar o‘z ustlarida muntazam ishlashlari kerak. Ayniqsa, bolaga o‘z tili asosida xorijiy tillarni qiziqarli o‘rgatish bolaning ongini oshiradi.

Yuqorida aytib oʻtilgan davrlarda farzandlarimizning umri, hayoti va vaqtining samarasi eng avvalo, tartiblilik bilan birga bolaga axloqiy qarashlarni shakllantirishga bogʻliq ekanligiga eʼtiborni qaratish lozim. Maʼlumki, oilada tarbiyaning poydevori yaratiladi. Xuddi mana shu davrda axloqiy tarbiyaga eʼtibor berib, bola qalbiga odamiylik urugʻlarini ekish kerak. Toki u hayotni, unga berilgan umrni qadriga yetsin. Unga oq-qorani farqiga borish oʻrgatilsa, qoʻlidan yetaklab, dunyoga olib chiqilsa, olamning koʻrinib turgan har bir elementiga eʼtibor berish, uni eʼzozlash shakllantirib borilsa, albatta u katta boʻlganda loqayd, beparvo inson boʻlmaydi. “Xalqimizda taʼlim va tarbiya beshikdan boshlanadi” degan hikmatli bir soʻz bor. Faqat maʼrifat insonni kamolga, jamiyatni taraqqiyotga yetaklaydi”[1]. Zero, “Axloqiy tarbiya eng muhim axloqiy tarbiya hisoblanadi. Oʻzingiz xohlaganingizcha bolalaringizning aqliy va badan tarbiyasi bilan mashgʻul boʻlishingiz mumkin va qoʻlingizdan kelguncha uni dono va baquvvat qiling, lekin axloqiy tarbiya talab darajasida boʻlmasa, aqli va jismoniy kuchni oʻzi yoki atrofdagilar zarariga ishlatadi. Axloqiy tarbiya – odam axloqini kamolga yetkazish demakdir, yaʼni odamni shunday tarbiya qilish kerakki, feʼli va amali oʻziga ham, boshqalarga ham foydali va manfaat keltiradigan boʻlsin”, [2] deydi maʼrifatparvar olim Abdurauf Fitrat.

Albatta, bola tarbiyasida yagona qoida yoʻq. Chunki hamma bola har xil. Ammo “oʻzbekchilikka” xos boʻlgan bolani qoʻlidan ish kelmaslikda ayblash ularning ruhiyatiga salbiy taʼsir qilishini unutmazlik lozim. Yoki har xil yoʻllar bilan qoʻrqitish vositasi ham bolaga yomon taʼsir koʻrsatadi. Bolaga qattiqqoʻl boʻlish ularda aybdorlik hissini yoki yolgʻonchilikni shakllantirishi mumkin. Ortiqcha gʻamxoʻrlik esa bolani mustaqil ishlar qilishidan toʻsadi. Demak, bola oʻziga qilingan dashnomning orqasida buyuk muhabbat, unga boʻlgan mehr yotganini his qilishi kerak.

Bolaga ikkita uchta ishni birdan buyurish baʼzida uni dovdiratib qoʻyadi. Agar eplay olmasa, dashnom berish uni mustaqil inson boʻlib shakllanishiga toʻsqinlik qiladi. Hamma narsaga ruxsat berib, ular talab qilgan narsalarni muhayyo qilish bolada xudbinlik-egoizmni paydo qiladi. Har bir bolaning yoshidan kelib chiqib talab qilish uni oʻziga ishonchini orttiradi. Aks holda terqash ham, erkalash ham, pand-nasihati ham ijobiy natija bermasligi mumkin. Vaqt – uchqur ot. Unga yetish, birga yugurish katta mashaqqat, iroda va tafakkurni talab qiladi. Kuzatuvlardan kelib chiqib aytish mumkinki, vaqt uni qizgʻangani uchunmi, katta yoshdagilarga tezroq oʻtayotganday tuyuladi. Ammo yoshlar oʻzi shoshqin, shuning uchun ularga vaqt imillayotganday tuyuladi. Bolalar tong otishini intizorlik bilan kutsalar, yoshlar uchrashuvni koʻz oldilariga keltirib, daqiqalarni betoqatlik bilan oʻtkazadilar.

Vaqtning besamar ketishini koʻpchilik oʻylamaydi. Hech bir ish bilan shugʻullanmaydigan odamlar “vaqtim yoʻq”, deb nolishadi. Bemorni koʻrishga vaqti yoʻq, ota-onani koʻrib kelishga vaqti yoʻq, qon-qarindoshni hatto eslab, tugʻilgan kunlarida telefonda boʻlsa ham tabriklab qoʻyishga vaqti yoʻq odamlarning soatlab gap sotishga, gap-gashtaklarga kechgacha qolib ketishga vaqt topganlari taajjublanarli. Bugungi kunda nafaqat yoshlar, balki kattalar ham

kompyuterda o'tirib, internet magazinlarida sayr qilishni xush ko'rishadi. Vaqtlari boshqalar hayotini tomosha qilish bilan o'tib ketadi.

Vaqt – bu eng avvalo, ham moddiy, ham ma'naviy tomondan katta boylik. Biz vaqtdan unumli foydalangan Sharq yoki G'arb mutafakkirlarini olamizmi, ularning hayotiga nazar solsak, aksariyat hollarda ularning vaqtni, umrni his qilib, bu dunyoning o'tkinchi ekanligini anglab yashaganlarini, faoliyat olib borganlarini, shu sababdan kelajak avlodlar qalbida o'chmas iz qoldirganlarining guvohi bo'lamiz.

Bugungi kunda yoshlarimiz orasida vaqtni qadrlaydigan o'qimishli, bilimga intiluvchan, uddaburon va mehnatkash fazilatlariga ega bo'lganlar mamlakat taraqqiyotiga o'z hissalarini qo'shmoqdalar. Yoshlar orasidan oliygohda o'qib turib, ham xorij grantlarini yutib, ham o'z ustida qattiq ishlayotganlar ilm olishning, kasbli bo'lishning afzal tomonlarini allaqachon anglab yetganlar.

Vaqtning har daqiqasi oltindan qimmatligini shu bilan asoslash mumkinki, vaqt oltinday bir joyda turmaydi. Agar uning yugurib o'tishidan undanda tez yugurib foydalana olinsagina qo'yilgan maqsadlarga erishish mumkin. Donishmand Hasan Basriy aytganlaridek, shunday zotlar bo'lganki, siz bir dirham dinoringizga haris (xasis) bo'lganingizdek, u zotlar ham vaqtlariga shundoq haris (xasis) edilar.

Qadimda odamlar vaqtlarini besamar o'tkazmaslik uchun olimu fuzalolarning suhbatlariga oshiqqanlar. Kitobxonlik kechalari bo'lgan. Ana shunday kitobxonlik kechalari Mirzo Ulug'bek, Ali Qushchi, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur kabi ulug' allomalarni yetishtirib chiqargan. Hadisi Sharifda ham "Sen olimlar suhbatida bo'lsang, martabang shu olim qatorida bo'lur. Alloh olimlar olimidir, shuning uchun ham u olimlarni ilmga intilganlarni yaxshi ko'radi", - deyiladi.

Mol-dunyo, boylik, ayshu ishratga o'ch insonlarning umri boqiy dunyoga safari bilan tugaydi. Umrini besamar o'tkazmagan, ezgu ishlar qilgan insonlarning umri esa ular vafotidan keyin ham odamlarga iliqlik berib, ularning qalbida yashaydi. Har bir insonning hayot yo'lini vaqt o'z tarozisiga solib, bahosini beradi. Vaqt – eng oliy hakamdir. Qancha shonu shavkatga burkangan boylar, amaldorlar izsiz o'tib ketdi, ammo o'z mehnati bilan vaqtning qadriga yetib, buyuk ishlar qilgan insonlarning hayoti umri boqiy bo'lib qoldi.

Buyuk mutafakkir Ibn Sino borliq (unda ham makon, ham vaqt bor) bilan Allohning o'zaro birligi to'g'risidagi g'oyani ilgari suradi. Unga ko'ra, abadiy borliq (makon va vaqt) ham Allohga, ham tabiatga xosdir. Ibn Sinoning bu qarashlarida hind falsafasining ta'siri sezilib turibdi. Sharq mutafakkirlari fikricha, butun borliq Xudoning o'zi bo'lib, moddiylik va ruhiylik uning turli holatlaridir.

Xo'sh, olimlarning, umuman ilmu salohiyati, intellekti yuqori odamlarning boshqa odamlardan farqi nimada? Albatta, ularning vaqtni his qilib, undan unumli foydalana olganliklaridadir. Darhaqiqat, barcha yaxshiliklar, yutuqlar, katta natijalar vaqtni to'g'ri sarflashdan kelib chiqadi. Shu haqiqatga mos amal qilgan allomalimiz ilm cho'qqilarini egallash orqali yuzlab bebaho kitoblarni yozishga erishganlar. Buni Abu Rayhon Beruniy, Forobiy, Ibn Sino, Xorazmiy, Farg'oniy

kabi allomalarimizning hayot tarzidan ham yaqqol ko‘rish mumkin. Yaxshi ishning erta-kechi yo‘q. Vaqtdan unumli foydalanish ortidan hayratlanarli natijalarga erishish mumkin. Bizga faxr bo‘lgan barcha ulug‘larimiz vaqt qadrini bilganlaridan shunday darajalarga erishganlar. Shuni alohida ta‘kidlash kerakki, vaqtning qadriga yetish asosini mashaqqatli mehnat tashkil qiladi. Ilmli bo‘lib, dunyoga ziyo taratish ham katta mehnatni talab qiladi. Beruniy “Hindiston” asarida “Ilm orqali haqiqatga erishish faqatgina yomonlikdan tiyilish bilangina vujudga keladi. Yomonlikning shoxobchalari ko‘p bo‘lsa ham, ularning asosi tama, g‘azab va ilmsizlikdir”, “Bilim qaytarish va takrorlash mevasidir” [3], “Tadqiqotchi ziyrak, (o‘z) xatolarini sinchiklab izlashi, tobora tirishqoq bo‘la borishi, mehnatidan zerikmasligi, o‘z-o‘zini qayta-qayta tekshirib turishi kerak” [4] deydi.

Mutafakkirning “Minerologiya” kitobida yozgan “Har bir insonning qadr-qimmatini o‘z ishini qanday bajarayotgani bilan o‘lchanadi”, “Badanni dangasalikdan qutqarish foydalidir, chunki u dangasalik, yalqovlik, ishyoqmaslik odamni buzilishga, kasalliklarga chalinishga olib keladi” [5], degan fikrlari vaqtning qadriga yetishga, uni isrof qilmaslikka chorlaydi. Ma‘rifatparvar olimlarimiz ham ilmning jamiyat taraqqiyotida qanchalik muhim rol o‘ynashiga katta e‘tibor qaratadilar. “Odam bolasini qancha ilmi ziyod bo‘lsa, dunyo, tarix, jug‘rofiya ilmidan xabari bo‘lsa, shuncha yaxshidir. Bu ilm odamg‘a butun dunyoni va ko‘p nimarsalarni bildiradur. Dunyo odamlarini din va mazhabi, tiriklik va raftori, taraqqiy yo tanazzul sababi, yaxshi va yamonliklari, mamlakatlarni tinch va osoyish yo zulm va javrg‘a turgoni, xulosa, butun ahvoli dunyoni, podsholarni quvvati, davlati, odamlarini odati, yer yuzini ahvolini bildiraturgon ushbu ilmdu”[6]. Allomalarimiz vaqtni boy bermasdan uning qadriga yetish kerakligiga e‘tiborni qaratadilar. “Ey inson! Jisiming salomat, beling quvvatlik, qaysi bir ishni qilmoqni xohlasang, unga qo‘ling yetadigan, o‘zing bajara oladigan vaqtingda, har narsani idrok etadigan kunlaringni g‘animat bil! Qo‘lingga himmat va g‘ayrat belini olib, ko‘ngil bog‘ingni obod qil! Bu ishning oxiri rohat keltiradi. Mehnatingga qarab, maqsadlaring hosil bo‘ladi”[7]. Vaholanki, donishmandlarning aytishicha, “Hayotning mazmuni shundan iboratki, kishi o‘lganidan so‘ng ham uning umri davom etadigan qilib yashashi kerak” [8].

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev rahbarligida yurtimizda yoshlarga e‘tiborni kuchaytirish, yosh avlodni madaniyat, san‘at, jismoniy tarbiya va sportga keng jalb etish, ularda axborot texnologiyalaridan to‘g‘ri foydalanish ko‘nikmasini shakllantirish, yoshlar o‘rtasida kitobxonlikni targ‘ib qilish, xotin-qizlar bandligini ta‘minlash masalalariga alohida e‘tibor qaratilgan.

O‘zbekiston aholisining 30 foizi 14 dan 30 yoshgacha bo‘lgan yoshlardir. Ularning ta‘lim olishi, kasb-hunar egallashi uchun islohotlar asosida zamonaviy sharoit va imkoniyatlar yaratilmoqda. Shu bois, yoshlarning umr qadriga yetib, ularning bo‘sh vaqtini mazmunli o‘tkazishini tashkil etish dolzarb masala hisoblanadi. Yoshlar qanchalik ma‘naviy barkamol bo‘lib, o‘zini baxtli his qilsa, turli yot illatlarga qarshi immuniteti ham shuncha kuchli bo‘ladi. Ta‘lim islohotlari natijasida farzandlarda bolalikdan yuksak onglilik madaniyatini shakllantirish

uchun ularda tashabbuskorlik faoliyatini rivojlantirishga katta e'tibor berilmoqda. Insonning shaxsiy mas'uliyati, tashabbuskorlik va fidoyilik fazilatlari esa, Vatanni chin dildan sevishdan, vatanparvarlikdan kuch oladi.

Islotlar yoshlarni yurt ravnaqi, Vatan kelajagi uchun kurasha bilishga, Vatan onaday aziz ekanligini anglashga yo'naltirilmoqda. O'tgan davrlarga qaraganda, globallashuv jarayoni yoshlarimizga o'zining ham ijobiy, ham salbiy ta'sirini o'tkazmoqda. Shuni nazarga olgan holda, eng avvalo, farzandiga e'tiborli bo'lishi va uni mehnatkash va g'ururli qilib tarbyalashi uchun ota-onalar ongiga vaqtini qadrlash tuyg'usi shakllantirib borilmoqda.

## **XULOSA**

Shunday qilib: yoshlarda ona vatanining tarixini, ma'naviy merosini o'rganib, umrini xalq manfaati yo'liga savobli ishlar qilishga sarflagan ajdodlar va allomalar bilan faxrlanish hissini uyg'otish va ular qalbidagi milliy g'ururni umuminsoniy g'urur darajasiga ko'tarish;

- ko'proq badiiy kitoblarni o'qitirish asosida yaxshini yomondan ajratishni o'rgatish, asarlardagi ijobiy obrazlar timsolida vaqtini umuminsoniy qadriyatlar darajasida anglashga yo'naltirish;

- vaqtning qadriga yetish qonuniy ekanini yoshlarga nafaqat ijtimoiy fanlar orqali anglatish, balki tabiiy va texnika fanlari yo'nalishlari orqali ham asoslab berish va uzluksiz ravishda shakllantirib borish;

- yoshlarda ta'lim-tarbiya jarayonida vaqtning – ham ma'naviy, ham moddiy qadriyat ekanligini idrok ettirish madaniyatini shakllantirish;

- talabalarda vaqtdan unumli foydalanib, o'qishiga, o'z kasbiga, kelajakdagi ishlariga kuchli qiziqish uyg'otish usul va uslublarini ishlab chiqish davr taqozosidir.

## **BIBLIOGRAFIYA**

1. Mirziyoyev Sh.M. Niyati ulug' xalqning ishi ham ulug', hayoti yorug' va kelajagi farovon bo'ladi. Toshkent, «O'zbekiston» NMIU, 2019. 3-jild. –B.29.
2. Fitrat A. Tanlangan asarlar. 4-tom. Toshkent: Ma'naviyat, 2006. – B.336, 291.
3. Beruniy. Tanlangan asarlar. Toshkent: Fan, 1966. 2-tom. – B.70, 439
4. Beruniy. Tanlangan asarlar. 3-tom. Toshkent: Fan, 1966. – B.44.
5. Beruniy. Tanlangan asarlar. 4-tom. Toshkent: Fan, 1974. – B.20, 30
6. Behbudiy M. Tanlangan asarlar. Toshkent: Ma'naviyat, 2006. – B.229, 280.
7. Imom Zarnujiy. Ilm olish sirlari. Toshkent: Movarounnahr, 2004. – B. 41.
8. Vaqtning qiymati. Toshkent: Toshkent Islom Unisersiteti, 2005. – B. 4.

**FALSAFA VA HAYOT//  
ФИЛОСОФИЯ И ЖИЗНЬ//  
PHILOSOPHY AND LIFE**

<b>Tahririyat manzili</b>	<b>Адрес редакции</b>	<b>Editors Address</b>
100085, O‘zbekiston Toshkent, Sergeli tumani, Mehrigiyo ko‘chasi -6	100085, Узбекистан, Ташкент Сергелинский район, Улица Мехригиё- 6	100085, Uzbekistan Tashkent Sergeli, Mehrigiyo street-6

Veb-sayt: <http://tadqiqot.uz/wp-content/uploads/2018/03/01/03pdf>  
www.tadqiqot.uz ; E-mail: [falsafa-h@mail.ru](mailto:falsafa-h@mail.ru), [Shermuhamedova\\_n@mail.ru](mailto:Shermuhamedova_n@mail.ru)  
Telefon: (+99890) 358-62-70

<b>MUASSISLAR:</b>	<b>УЧРЕДИТЕЛИ:</b>	<b>FOUNDERS:</b>
Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy Universiteti  O'zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasi huzuridagi Imom al Buxoriy xalqaro ilmiy - tadqiqot markazi O'zbekiston falsafa jamiyati OOO tadqiqot	Национальный Университет Узбекистана имени Мирзо Улугбека  Международный научно- исследовательский центр Имом ал Бухори при кабинете Министров Республики Узбекистан Философское общество Узбекистана OOO tadqiqot	The National University of Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek  International Research Center Imom al Bukhori at the Cabinet of Ministers of the Republic of Uzbekistan Philosophical Society of Uzbekistan OOO tadqiqot

**Tahririyat sifatli maqolalarni tanlash huquqini saqlagan holda taqdim etilayotgan materiallarning aniqligiga javob bermaydi.**

**Jurnaldan ko'chirib bosilganda manba qayd etilishi shart.**

**Редакция оставляет за собой право отбора качественных статей и не несет ответственности за достоверность информации в представленных материалах.**

**The editors reserve the right to select quality articles and is not responsible for the reliability of the information in the submissions.**

Подписано для сайта  
Тошкент шаҳри

Заказ №.